

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**1-son (2022-yil, fevral)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

# PEDAGOGIK MAHORAT

## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 1

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

# ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

## Научно-теоретический и методический журнал

### № 1, 2022

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

#### **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Мустафа Саид Арслан, доктор филологических наук, профессор (Турция)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Шириной Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор педагогических наук (DSc)*

*Хайитов Шодмон, доктор исторических наук, профессор*

*Ражабов Кахрамон, доктор исторических наук, профессор*

*Тураев Халим Хожиевич, доктор исторических наук, профессор*

*Мухитдинова Хадича Собировна, доктор педагогических наук, профессор*

*Ниёзматова Роза Хасановна, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук (DSc)*

*Курбонова Гулноз Нейматовна, доктор педагогических наук (DSc)*

## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>7</b>
G'olibjon OTAMURODOV, Elyor ALKAROV, Bahodir XURRAMOV. Malaka oshirish jarayonlari tahlili va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari .....	7
Riskeldi TURGUNBAYEV. O'quv tezaurusi va talaba leksikoni orasidagi munosabat haqida .....	13
Ixtiyor XOLIQOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish .....	17
Венера КАРИМОВА. Анализ международного опыта повышения квалификации педагогических и руководящих кадров высших образовательных учреждений .....	19
Zuvur TOIROV. Ta'lim tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni o'rganish masalalari, yechimlari va istiqbollari .....	24
Shoira USMANOVA. Kasbiy shakllanishda ijtimoiy faollik va intellekt dinamikasi .....	28
Diyora AVEZMURATOVA. Talabalarining o'quv - biluv faoliyatini rivojlantirishda muammoli ta'limning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari .....	31
Dilnoza AXMEDOVA. Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari .....	34
Farrux RAXIMOV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishlarida virtual ta'lim texnologiyalari yordamida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish samaradorligini oshirish .....	37
Matluba ZARIPOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni modulli o'qitishga tayyorlash texnologiyasining nazariy asoslari .....	40
A'lamjon IBRAGIMOV. O'qituvchining kognitiv kompetentligi tushunchasi: konseptual yondashuv .....	44
Sohibjamol JO'RAYEVA. Pedagog imijini tavsiflovchi shaxslilik xususiyatlari .....	50
Shamsiya ALIMOVA. O'quvchilarda o'z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirish .....	57
Xasan BAXROMOV. Tibbiy oliy ta'limda o'qituvchi - vrach - klinist munosabatlari (xorijiy tajriba misolida) .....	62
Shoira DUSMUXAMEDOVA. Kattalar ta'limi samaradorligida psixologik va androgogik bilimlarning ahamiyati .....	66
Firuz KADIROVA. Research methods of "teaching reading skills to the students of higher education" .....	70
Zilola RASULOVA. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	75
Chori XAYRULLAYEV. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy omillari .....	79
Xurshida YULBARSOVA. Zamonaviy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning integratsion shart-sharoitlari .....	83
Ихтиёр КУРБАНОВ. Проблемы столкновения идей сформированно инновационной личности современного государства .....	86
Abdimumin RASULOV, Muhammadrasul IBRAGIMOV. Pedagogik qobiliyatni baholash usuli .....	90
Marhabo ASHUROVA. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoni" asarida ustoz-shogird munosabatlarining yoritilishi .....	96
Farida OCHILOVA, Durdona DAVLATOVA. Bolalar nevrozini bartaraf etishda art-terapiya usullaridan foydalanish .....	100
Ziyodullo ELOV. Nutqda uchraydigan buzilishlar va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri .....	103
Anjim SHAMSHETOVA. Ekologiya va biz .....	106
Firuz SIROJIDDINOVA. Mehnat faoliyatining psixologik tarkibi xususida mulohaza .....	109
Shavkat G'AFOROV. Ijtimoiy madaniy muhit va shaxsning psixologik salomatligi .....	111
Go'zal YUNUSOVA. O'smirlarda deviant xulqni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va uning profilaktikasi .....	115
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>119</b>
Nigora MUXITDINOVA. "Ilk qadam" o'quv dasturida jismoniy tarbiya masalalarining yoritilishi .....	119
Go'zal QURBONOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh bolalarida gender tolerantlikni shakllantirishda o'yin texnologiyalari .....	124
Shabnam YUSUFZODA. Boshlang'ich sinf husnixat darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish .....	127
O'g'iljon OLLOQOVA. Intensiv ta'lim asosida boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish .....	131
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>135</b>
Muqaddas TO'RABOYEVA. 8-sinf ona tili darslarida topshiriqlar asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	135
Дилором ШОДИЕВА. Проектная работа по приобретению общих и профессионально-языковых компетенций студентами вузов на примере организации полилога-дискуссии .....	139
Akram QILICHEV. RUs xalq maqollarida "ayol" konseptining salbiy xususiyatlari .....	145

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM****Nigora MUXITDINOVA**

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

**“ILK QADAM” O'QUV DASTURIDA JISMONIY TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI**

*Mazkur maqolada “Ilk qadam” o'quv dasturida jismoniy tarbiya masalalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda maqsad va vazifalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy rivojlanish, bola kompetensiyasi, sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik, ijodiy qobiliyat, motorika (yirik, mayda, sensomotorika).

*В статье описаны особенности, цели и задачи физического воспитания по программе “Первый шаг”.*

**Ключевые слова:** физическое развитие, детская компетентность, здоровый образ жизни, физическая активность, творческие способности, моторика (большая, малая, сенсомоторная).

*This article describes the specifics, goals and objectives of physical education in the “First step” curriculum.*

**Key words:** physical development, child competence, healthy lifestyle, physical activity, creative ability, motor skills (large, small, sensomotor).

**Kirish.** Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi. Mazkur dasturda muvofiq ta'lim yo'nalishida belgilangan vazifalar besh yil mobaynida keng ko'lamli salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi [1].

**Asosiy qism.** Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

**Tadqiqot natijasi hamda muhokamasi:** Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi farmon va qarorlari mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun asos bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi [2].

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog’lom va rivojlangan shaxs bo’lib shakllanishini ta’minlab, o’qishga bo’lgan ishtiyoqini uyg’otib, tizimli o’qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo’lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o’qishga tayyorlash, bolani sog’lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo’lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o’qishga, tizimli ta’limga bo’lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shu maqsadda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, intellektual va estetik-axloqiy jihatdan kamol topishi yo’lida “Ilk qadam” o’quv dasturi ishlab chiqildi.

“Ilk qadam” o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli Hay’at yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o’quv dasturi (quyida: “MTT davlat o’quv dasturi”) O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo’lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o’quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g’oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o’tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta’lim tashkilotlarida qo’llash uchun majburiy:

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta’lim sohasida xizmat ko’rsatuvchi nodavlat tashkilotlari;
- maktabgacha guruhlariga ega bo’lgan “Mehribonlik” bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang’ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

Davlat o’quv dasturi variativ o’quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Ta’lim tashkilotlari Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o’quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega.

Ta’lim tashkiloti Davlat o’quv dasturi asosida o’zining MTT ishchi o’quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta’lim tashkilotining ishchi o’quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o’quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning o’quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;

bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o’zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

#### **MTTda ta’lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari**

MTT ta’lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bola huquqlari, o’ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta’lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o’zaro bog’liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo’llab-quvvatlash;
- o’yin orqali ta’lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta’minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an’analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi rivojlanishini qo’llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari javobgar bo’ladi.

**Bolaning rivojlanish sohalarini kompetensiyalari.** Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari;

- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

**“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:**

- yirik motorika;
- mayda motorika;
- sensomotorika;
- sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

**“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari**

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

• o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g‘amxo‘rlik qilish, erkin ijodiy o‘z-o‘zini ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o‘zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko‘rish, qo‘llab-quvvatlash, rivojlanish yo‘llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta‘lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi [3].

“Ilk qadam” dasturining mazmun – mohiyatiga e‘tibor qaratar ekanmiz maktabgacha ta‘lim tarbiyalanuvchilarining kompetentligini rivojlantirishga qaratilganligiga guvoh bo‘lamiz, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo‘yiladigan Davlat talablarining yangilanganligini alohida e‘tirof etish lozim. Davlatning bu ikki hujjati maktabgacha ta‘lim sohasidagi boshqaruvchilar, maktabgacha ta‘lim tizimidagi pedagoglar turli, xildagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim oluvchi har bir bolaning yuqori sifatli ta‘lim olishini ta‘minlash maqsadlarida yo‘riqnoma sifatida foydalanadigan asosiy hujjatlar bo‘lib hisoblanadi.

#### **Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining yillik ish rejasi**

Jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchining yillik ish rejasi “O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida har bir guruhi kesimida tuziladi. Rejada o‘quv yili davomida har bir oy uchun asosiy harakat turlari bo‘yicha mashqlar va harakatli o‘yinlar nomi belgilanadi.

(1- jadval)  
Tasdiqlayman”  
- sonli DMTT

direktori \_\_\_\_\_

#### **O‘RTA GURUH**

yurish	yugurish	Sakrash va emaklash	Irg‘itish o‘yinlari	Harakatli o‘yinlar	Umumiy soni
15	15	12	10	20	72

Sentabr	Asosiy harakatlar		Harakatli o‘yinlar
	yurish	Ketma-ket yurish, juft-juft bo‘lib yurish	“Uchdi, uchdi” “Choriy chamber” “Sakra bodom” “Aylanma darra”
	yugurish	Oyoq uchida yugurish, tizzalarni baland ko‘tarib yurish	
	sakrash	Turgan joyda ikki oyoqlab sakrash, aylanib sakrash	
	irg‘itish va emaklash	To‘pni bir-biriga irg‘itib ilib, olish, 10 m masofaga emaklash	

<b>Oktabr</b>	<b>yurish</b>	Oyoq uchida yurish, tizzalarni baland ko‘tarib yurish	“Ko‘z boylag‘ich” “Chitti gul” “Qoch bolam, qush keldi” “Kim topqir”
	<b>yugurish</b>	Tovonda yugurish, katta qadamlar bilan yugurish	
	<b>sakrash</b>	Turgan joyda ikki oyoqlab sakrash, aylanib sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	To‘pni bir-biriga irg‘itib ilib olish, 10 m masofaga emaklash	
<b>Noyabr</b>	<b>yurish</b>	Tovonda yurish, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan yurish	“Tortishmashoq” “Qushim boshi” “Do‘ppi tashlar” “Kim chaqqon”
	<b>yugurish</b>	Safda juft bo‘lib yugurish, turli yo‘nalishda yugurish	
	<b>sakrash</b>	Qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib sakrash, oldinga qarab yurish vaqtida sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	100-150 cm oraliqdagi to‘pni ilib olishga harakat qilish, turli balandlikdagi buyumlar ostidan emaklab o‘tish	
<b>Dekabr</b>	<b>yurish</b>	Turli buyumlarni oralab yurish, yonlamasiga yurish, oldinga, orqaga chapak chalib yurish	“Quyosh va yomg‘ir” “Bog‘lam” “Kesak qo‘ydi” “Do‘ngdan-do‘ngga”
	<b>yugurish</b>	Doira bo‘ylab yugurish, qo‘lni ushlab yugurish, qiya taxtadan oyoq uchida yurish	
	<b>sakrash</b>	Bir oyoqda turgan joyda sakrashlar (o‘ng va chap oyoqda), yurgan holda sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	To‘pni 2 m masofaga bir qo‘llab irg‘itish, to‘rt oyoqlab yurish	
<b>Yanvar</b>	<b>yurish</b>	Harakat maromi va yo‘nalishini o‘zgartirib yurish, safda yurish	“Estafeta” “Buyumni o‘rniga qo‘y” “Daladagi qo‘zichoq” “Tramvay”
	<b>yugurish</b>	Chiziqchani ustidan yugurish, ilon izi bo‘lib yugurish	
	<b>sakrash</b>	To‘siqlardan sakrab o‘tish, 70 cm uzunlikka sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	To‘pni ko‘krak ustidan, boshdan oshirib otish, 20-30 cm balandlikdagi arqon tagidan emaklash	
<b>Fevral</b>	<b>yurish</b>	Tovonda ilon izi bo‘lib yurish, qavariq taxta ustida oyoq uchida yurish	“Marrani egalla” “Mening sho‘x koptogim” Tulki tovuqxonada “Qo‘chqor”
	<b>yugurish</b>	Yugurishni yurish bilan almashtirib yugurish, to‘siqlar orasida yugurish	
	<b>sakrash</b>	20-30 cm balandlikdan sakrab o‘tish, arqon bilan sakrash, narvonchaga tirmashib chiqib uzoqqa sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	To‘pni yuqoriga otib ilib olish, halqa orasidan emaklab o‘tish	
<b>Mart</b>	<b>yurish</b>	Qiya taxtadan muvozanat saqlab yurish, ilon izi bo‘lib yurish, qadamma-qadam doira bo‘ylab to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yurish, chap va o‘ng tomonlarga yurish	“Buyumga qo‘lingni tekkiz” “Ovchi va quyonlar” “Qushga o‘xshab uch” “Nishonga tekkiz”
	<b>yugurish</b>	To‘g‘ri yo‘lka bo‘ylab yengil yugurish, oyoq tizzalarini baland ko‘tarib, katta qadamlar bilan yugurish, qatorda juft bo‘lib, doira bo‘ylab yugurish	
	<b>sakrash</b>	Ikki oyoqlab sakrab o‘tish, predmetlar orasidan sakrab o‘tish, chapga, o‘ngga burilib sakrash	
	<b>irg‘itish va emaklash</b>	Qum xaltachani uzoqqa irg‘itish, stollar tagidan emaklab o‘tish, koptokni yerga urib ilib olish, koptokni uzoqqa otish	
<b>Aprel</b>	<b>yurish</b>	Cho‘kkalab yurish, qavariq taxta ustida tovonda yurish, mayda va katta qadam tashlab yurish, oyoq uchi va tovonda yurish	“Xo‘roz” “G‘ozlar-g‘ozlar” “Toshni kim uzoqqa otadi”. “Ot o‘yini”
	<b>yugurish</b>	80-100 m masofaga asta yugurish, signalga qarab qatordagi o‘rnini topib, sherigini ushlab va turli vaziyatlarda undan qochib yugurish, yugurishni yurish bilan almashtirish	
	<b>sakrash</b>	Doirachalar ichidan sakrab o‘tish, qiya taxtachadan yurib sakrash, oyoqlarni juftlashtirib va ochib ikki oyoqlab sakrash	
	<b>irg‘itish va</b>	O‘rindiqlar tagidan emaklab o‘tish, buyumlar tagidan	



	<b>emaklash</b>	o'ng va chap tomonga emaklab o'tish, buyumlar ostidan o'tish	
<b>May</b>	<b>yurish</b>	Harakat tezligi va yo'nalishini o'zgartirib, yo'nalishini almashib qatorda yurish, chap va o'ng tomonlarga yurish chalkash qadam tashlash oyoq tovonidan oyoq uchiga o'tib yurish	“Qopqon” “Quyuncha hamon o'tiribdi “Quloq cho'zish” “Oq suyak”
	<b>yugurish</b>	Sekin yugurish, 100 metrga chiziq bo'ylab bir me'yorda yugurish 10 metrga tez yugurish, mokisimon yugurish	
	<b>sakrash</b>	Qisqa tanaffuslar bilan 20 martadan sakrash, oldinga yurib kelib sakrash, chamberakdan - chamberakka sakrash	
	<b>irg'itish va emaklash</b>	10 m masofaga ilon izi bo'lib emaklash, koptok, chamberaklarni buyumlar orasida dumalatish, koptokni yerga urib ilish, koptokni pastdan bosh ustidan otish, 2 m bo'lgan masofadan bir qo'llab to'siqdan oshirib otish.	

**Xulosa.** Davlat dasturi sifatida “Ilk qadam” dasturining alohida muhimligi shundan iboratki, bunda u o'z ichiga o'qitishning pedagogik maqsadlarini oladi, kun davomida bolaning ta'lim olishi tuzilmasini ta'minlaydi, shuningdek, pedagoglar uchun bola rivojlanishining qaysi eng muhim jihatlariga o'z diqqatlarini qaratishlari lozimligi belgilab qo'yilgan. Davlat dasturi bo'lish bilan birga “Ilk qadam” dasturi butun maktabgacha ta'lim tizimini to'liq qamrab oladigan va uni tartibga soladigan hujjat hisoblanadi. “Ilk qadam” dasturi turli xil bolalar guruhlariga har xil provayderlar tomonidan taqdim etiladigan maktabgacha ta'limning bir xil sifatini ta'minlashga mo'ljallangandir. Dastur pedagoglarga bolalar uchun rag'batlantiruvchi o'qitish muhitini qanday qilib yaratish va bunga ota-onalarni ham qay yo'l bilan jalb qilishni tushunish va bilib olishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, mazkur dasturning yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati beqiyos.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyevning “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. 2016.29.12.
2. “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF- 5198 sonli Farmoni. 2017.30.09.
3. “Ilk qadam” o'quv Dasturi. 2018. 07.07.

**Go‘zal QURBONOVA**Buxoro davlat universiteti  
tayanch doktoranti

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI KATTA GURUH BOLALARIDA  
GENDER TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI**

---

*Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruhi bolalarida gender tolerantlikni shakllantirishda o'yin texnologiyalarining roli bo'yicha fikrlar keltirilgan. Maqolada tarbiya hamda ta'lim berish jarayonidagi geymifikatsiya – o'yinni ta'limning turli sohalarida qo'llashning o'qitish va tarbiyalash usuli sifatida, ham ta'lim shakli sifatida, ham yaxlit ta'lim jarayonini tashkil etish vositasi sifatida talqin qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *gender, tolerantlik, o'yin, individ, qiziqish, istak, chegaralangan erkinliklar, stereotiplar, majburiyatlar stressi, geymifikatsiya, oila, video o'yinlar, yetuk, barkamol shaxs.*

*Представлены мнения о роли игровых технологий в формировании гендерной толерантности у детей большой группы дошкольных образовательных учреждений. В статье показаны возможности интерпретации игры в процессе воспитания и обучения - использование игры в различных областях образования как метода обучения и воспитания, как формы обучения, так и как средства организации всей учебной деятельности. процесс.*

**Ключевые слова:** *пол, толерантность, игра, личность, интерес, желание, ограниченные свободы, стереотипы, стресс обязательств, геймификация, семья, видеоигры, зрелый, дееспособный человек.*

*Opinions on the role of play technologies in the formation of gender tolerance in children of a large group of preschool educational institutions are presented. The article shows the possibilities of interpreting the game in the process of upbringing and education - the use of the game in various fields of education as a method of teaching and education, both as a form of education and as a means of organizing the whole educational process.*

**Key words:** *gender, tolerance, play, individual, interest, desire, limited freedoms, stereotypes, commitment stress, gamification, family, video games, mature, competent person.*

**Kirish.** Barchamizga ma'lumki, faoliyat va faollik turlari ichida o'yin faoliyati inson hayotining barcha bosqichlarida qiziqish, motivatsiya hamda intilishni stimullovchi xususiyati bilan ajralib turadi. O'yin faoliyati psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, asosan kichik yoshdagi bolalar hayotida muhim o'rin tutadi. Buning sababi, maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin, bolaning individdan shaxs sari shakllanayotgan “Men”ining qiziqishlari, manfaatlari, istak va hayollarini ro'yobga chiqarish, har ikkala jins vakillari bilan o'zaro munosabatda bo'lishda tajriba orttirish, tanlov erkinligining mavjudligi, tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlikda deyarli tasavvur yetgan hamma imkoniyatlarni taxminlash ehtimoli mavjud bo'lgan maxsus dunyo hisoblanadi.

**Asosiy qism.** O'yin maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolaga turli xil ijtimoiy-madaniy, jinsiy rollar, munosabatlar (o'yin jarayonida ham, real hayotda ham) sinab ko'rish, shuningdek, ko'plab ijobiy his-tuyg'ular, taassurotlar, unutilmas, quvonchli daqiqalarni boshdan keyichishga sharoit yaratadi.

Maktabgacha ta'limda bolalikning quvnoq, cheklovlarsiz hayot tarzi, odatda, gender tengligi, gender tolerantligi haqidagi bilimlarni berishga unchalik ham moslashtirilmagan. Shu sababli ham, bola uchun bir jinsga mansub hamda qarshi jins vakillariga bir xil munosabatda bo'lish doimiy, tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Undan qarshi jins vakiliga nisbatan alohida, boshqacha munosabatda bo'lishning talab qilinishi, dastlabki hollarda tushunmovchiliklar va inkor, isyonlarga olib kelishi mumkin. Yoki oilada tarbiya, yanada batafsil aytganda, oilada gender intolerantligi kuzatilgan hollarda, bolaning o'zga jins vakiliga uyida ko'rgani kabi salbiy munosabat shakllanishi mumkinligi ham aksariat hollarda ko'p uchraydi.

Bola qolipga solingan, chegaralangan erkinliklar, stereotiplar, majburiyatlar stressni, urinishlari muvaffaqiyatli chiqmagan taqdirda esa depressiyani keltirib chiqaradi. Natijada, maktabgacha ta'lim muassasasi katta guruhi bolasida o'qish, jamiyat, hayot va insonlarga nisbatan qiziqishning so'nishi kelajakda uning yaxshi kadr, yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga jiddiy to'siq paydo bo'ladi.

Shu sababli ham ko'pchilik bolalarda kichik yoshdan boshlab axborot kommunikatsiya vositalari, gadgetlar, kompyuter, telefon, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlarga qaramlik va o'zaro kommunikatsiyaga kirisha olmaslik, munosabatlarda to'siqlar muammosi paydo bo'ldi. Ammo bu qiziqishlar bolalarda